

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIKANI O‘QITISHDA IZCHILLIKNI TA‘MINLASH**

**Abdiraimova Gulrux Samad qizi**

QarDU Pedagogika fakulteti Ta‘lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang‘ich ta‘lim)

O‘zbekistonda ta‘lim islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo‘nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo‘yildi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 5-sentabrda “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon imzolandi. Unga ko‘ra “-umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta‘minlash; -xalq ta‘limi tizimiga ilg‘or xorijiy tajribani, o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta‘lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish” vazifasi qo‘yildi. Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitishda izchillik muhim ahamiyat kasb etadi va matematika fanini kichik maktab yoshidagi bola ongiga singdirishda mazkur aspektga e‘tibor qaratilmasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlar boshlang‘ich ta‘lim matematika kursi mazmunini ilg‘or xorijiy tajribaga asoslanib qator yangi mavzular bilan boyitish, natijada o‘quv adabiyotlar mazmunini ham shunga moslashtirish vazifalarini qo‘ydi. Matematika fani rivoji davrida sharq va g‘arb mutafakkirlari qarashlari hozirgi mazkur fanning fundamenti hisoblanadi.

Forobiy o‘z pedagogik nazariyalarini, psixologik, fiziologik muammolarni falsafaning muhim qismi sifatida talqin etadi hamda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat ekanligini aytib, uni bir butun holda o‘rganishni tavsiya etadi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o‘quvchiga bilim berishda: -o‘quvchini zeriktirmaslik; - bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik; -uzviylik, izchillik; - yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e‘tibor berish kerakligini uqtiradi.

Bu borada g‘arb olimlarining ham qarashlari mavjudki, ularning izlanishlari sohani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. *Pestalotsining* ta‘lim metodlari, tarbiya haqidagi nazariy, didaktik fikrlari bolaning izchillikda rivojlanishini ta‘minlovchi mashqlarni to‘g‘ri tanlash, bolani o‘z tabiiy imkoniyatlarini uyg‘unlikda namoyon etishini ta‘minlash haqidagi qarashlari, shaxsiy tajribalari asosida yuzaga keldi. Pestalotstsi boshlang‘ich ta‘limni osondan murakkabga, ya‘ni induktiv usul asosida tashkil etdi, bunda uzluksizlikka e‘tibor berdi.

Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida maktabda o‘qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi. 1. Onglik va faollik. 2. Ko‘rsatmalilik. 3. Izchilik va tizimlilik. 4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash. Izchillik tamoyilida- fan asoslarini izchil bayon qilish va sistemali tarzda o‘rgatish talab etiladi. Izchillik tamoyilida kun, oy, yilga vazifa qo‘yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o‘qishning bola yoshiga mos bo‘lishi, material izchillik bilan o‘rganilishi, ya‘ni bugungi material ertangi bilan bog‘lanishi va keying o‘tiladigan materialga yo‘l ochishi kerak.

“Boshlang‘ich matematika dasturi, avvvalo, natural sonlar, natural sonlar asosida to‘plamlardan foydalangan holda ular ustida to‘rt arifmetik amallar bajarishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda algebra va geometriyaning asosiy tushunchalari, asosiy miqdorlar kiritilgan. Ular to‘rt arifmetik amallar bilan qo‘shib o‘rgatiladi”. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘lim matematika mazmuniga yuqorida keltirilganidek natural sonlar va ular ustida to‘rt arifmetik amallar bajarish, asosiy miqdorlar, vaqt o‘lchov birliklari, uzunlik o‘lchov birliklari, sig‘im o‘lchov birliklari, yuza o‘lchov birliklari, geometrik figuralar, harfiy ifodalar, tenglama va tengsizliklar, koordinata o‘qi hamda so‘ngi yillarda kasr tushunchalari, kombinatorikaga oid masalalar,

mantiqiy masalalar, mulohazalar kabi yangi tushunchalar bilan ham boyitildi. Bu tushunchalar soddadan murakkabga qarab izchillik va uzviylik asosida yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘rta maktabda matematika o‘qitish, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirildi. Matematikani o‘qitishning asosiy vazifasi matematika fanining asoslarini o‘rganish hamda umumiy intellektual rivojlanish - matematikani o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning to‘liq ishlashi uchun zarur bo‘lgan fikrlash fazilatlarini shakllantirishdan ham iboratdir. Zamonaviy jamiyatdagi odam, odamning bu jamiyatga dinamik moslashuvi uchun o‘ziga xos matematik bilimlarga asoslangan, insonning individual faoliyati uchun, atrofdagi dunyoni matematika yordamida bilish va anglash uchun shart-sharoitlarning shakllanishi, albatta, maktab matematika ta‘limining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent PF-5538 2018-yil 5-sentabr
2. M.E.Jumayev, Z.Tadjiyeva “Matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent-2005
3. O‘. M. Asqarova va boshq. “PEDAGOGIKA”. T-«TALQIN» - 2008
4. Shodiyev R.D., Abduraimova G.S. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda izchillik” maqola. “Муғаллим” Qoraqalpog‘iston 2021-yil 2-son